

**YOSHLAR MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISH VA KOMIL INSONNI
SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI**

*Nizomiy nomidagi O‘zMPU Tarix fakulteti “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va
huquq ta’limi” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

Alimuxammadova Gulsevar Xaydar qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish hamda komil insonni shakllantirishning zamonaviy jamiyatdagi dolzarb masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Yosh avlodning ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda oila, ta’lim muassasasi, mahalla va ijtimoiy muhitning o‘rni yoritiladi. Shuningdek, globallashuv, raqamli texnologiyalar va axborot oqimining yoshlar dunyoqarashiga ta’siri, media va axborot savodxonligini rivojlantirish zarurati tahlil etiladi. Maqolada milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi, vatanparvarlik, mas’uliyat, halollik, mehnatsevarlik, kitobxonlik va mustaqil fikrlash kabi fazilatlarning komil insonni shakllantirishdagi ahamiyati asoslab beriladi. Yoshlar tarbiyasini takomillashtirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: yoshlar ma’naviyati, komil inson, ma’naviy-axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, vatanparvarlik, axborot savodxonligi, kitobxonlik, mustaqil fikrlash, pedagogik tarbiya, ma’rifat.

Аннотация: В данной статье рассматриваются актуальные вопросы повышения духовности молодежи и формирования гармонично развитой личности в условиях современного общества. Анализируется роль семьи, образовательных учреждений, махалли и социальной среды в формировании духовно-нравственных качеств молодого поколения. Особое внимание уделяется влиянию глобализации, цифровых технологий и информационных потоков на мировоззрение молодежи, а также необходимости развития медиаграмотности и критического мышления. Обосновывается значение национальных и общечеловеческих ценностей, патриотизма, ответственности, честности, трудолюбия, культуры чтения и самостоятельного мышления в воспитании совершенной личности. Предлагаются педагогические подходы и практические рекомендации по повышению эффективности духовно-просветительской работы с молодежью.

Ключевые слова: духовность молодежи, совершенная личность, духовно-нравственное воспитание, национальные ценности, общечеловеческие ценности, патриотизм, информационная грамотность, культура чтения, самостоятельное мышление, педагогическое воспитание, просвещение.

Abstract: This article examines the current issues of enhancing youth spirituality and developing a well-rounded personality in modern society. It analyzes the role of the family, educational institutions, local communities, and the social environment in shaping the

spiritual and moral qualities of the younger generation. Particular attention is paid to the influence of globalization, digital technologies, and information flows on young people's worldview, as well as the importance of developing media literacy and critical thinking. The article substantiates the significance of national and universal human values, patriotism, responsibility, honesty, diligence, reading culture, and independent thinking in developing a morally mature individual. It also presents pedagogical approaches and practical recommendations aimed at improving the effectiveness of spiritual and educational work with young people.

Keywords: *youth spirituality, well-rounded personality, spiritual and moral education, national values, universal human values, patriotism, information literacy, reading culture, independent thinking, pedagogical education, enlightenment.*

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti nafaqat iqtisodiy va texnologik rivojlanish, balki inson kapitalining sifati, yosh avlodning bilim darajasi, dunyoqarashi va ma'naviy-axloqiy qiyofasi bilan ham belgilanadi. Yoshlar har qanday davlatning ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy taraqqiyotini ta'minlaydigan muhim kuch hisoblanadi. Shu sababli yoshlarning bilimli, mustaqil fikrlaydigan, ma'naviy yetuk, Vatanga sadoqatli va ijtimoiy mas'uliyatli shaxslar sifatida voyaga yetishi dolzarb vazifalardan biridir, ma'naviyat tushunchasi insonning ichki dunyosi, dunyoqarashi, axloqiy qarashlari, e'tiqodi, qadriyatlarga munosabati va jamiyatdagi xulq-atvorini qamrab oladi. Ma'naviy jihatdan yetuk inson o'z manfaatini jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtira oladi, o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his qiladi va atrofidagi insonlarga hurmat bilan munosabatda bo'ladi. O'zbekistonda yoshlar tarbiyasi davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yoshlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, ularning ta'lim olishi, rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishga doir normalar mustahkamlangan. Bu esa yoshlar masalasining jamiyat hayotidagi strategik ahamiyatini ko'rsatadi, bugungi axborotlashgan jamiyatda yoshlar tarbiyasining mazmuni ham o'zgarib bormoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar bilim olish uchun katta imkoniyat yaratishi bilan birga, turli zararli axborotlar ta'siriga tushish xavfini ham oshiradi. Shuning uchun zamonaviy yosh nafaqat bilimli, balki axborotni tahlil qila oladigan, mustaqil xulosa chiqaradigan va turli g'oyaviy ta'sirlarga nisbatan tanqidiy munosabat bildiradigan shaxs bo'lishi kerak. Ma'naviyat insonning jamiyatdagi hayotini tartibga soluvchi muhim omillardan biridir. U insonning yaxshilik va yomonlikni farqlashi, adolat va nohaqlikka munosabat bildirishida namoyon bo'ladi. Yoshlar ma'naviyatining yuksakligi esa kelajak jamiyatining axloqiy va ijtimoiy muhitiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, yoshlar ma'naviyatini shakllantirish jarayoni bir necha omillarning o'zaro ta'siri asosida kechadi. Bular qatoriga oila, ta'lim, do'stlar muhiti, mahalla, ommaviy axborot vositalari, internet, san'at, adabiyot va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni kiritish mumkin. Ushbu omillarning har biri yoshlarning dunyoqarashiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviy tarbiyaning asosiy maqsadi yoshlarni ma'lum qoidalarni yod olishga emas, balki ularning mazmunini anglab yetishga o'rgatishdir. Masalan, halollikni qadriyat sifatida qabul qilgan yosh yolg'on gapirishning noto'g'ri ekanini faqat kattalar aytgani uchun emas, balki halollik insonning o'ziga va

jamiyatga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashini tushungani uchun unga amal qiladi. Shu jihatdan ma‘naviy tarbiya insonning ichki ehtiyojiga aylanishi lozim. Tarbiya natijasi yoshning kundalik hayotdagi qarorlarida, odamlar bilan munosabatida, o‘qishga va mehnatga munosabatida namoyon bo‘ladi. Komil inson g‘oyasi Sharq falsafasi va ma‘naviy tafakkurida qadimdan muhim o‘rin egallab kelgan. Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlarida insonning aqliy, axloqiy va ma‘naviy kamoloti haqida chuqur fikrlar ilgari surilgan. Komil insonni faqat ko‘p bilimga ega bo‘lgan shaxs sifatida tushunish to‘g‘ri emas. Insonning komilligi uning bilimi bilan bir qatorda axloqi, madaniyati, mas‘uliyati, irodasi, mehnatsevarligi va jamiyatga foydali faoliyatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy sharoitda komil inson tushunchasiga yangi talablar ham qo‘shilmoqda. Bugungi yosh raqamli texnologiyalardan foydalanishni bilishi, axborot xavfsizligi qoidalariga rioya qilishi, tanqidiy fikrlashi va doimiy ravishda o‘z bilimlarini rivojlantirib borishi zarur. Demak, komil inson — o‘zining shaxsiy rivojlanishi bilan birga jamiyat taraqqiyotiga ham hissa qo‘sha oladigan, ma‘naviy qadriyatlarga amal qiladigan va zamonaviy bilimlarni egallagan faol shaxsdir. Globallashuv turli xalqlar va madaniyatlar o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirmoqda. Bugungi yosh dunyoning istalgan nuqtasidagi axborotdan qisqa vaqt ichida foydalanish imkoniyatiga ega. Bu jarayon ta‘lim, fan va madaniyat rivoji uchun katta imkoniyatlar yaratadi, biroq axborotning ko‘pligi uning barchasi foydali degani emas. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan yolg‘on ma‘lumotlar, zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi materiallar, turli manipulyativ kontentlar yoshlarning ruhiy va ma‘naviy qarashlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin va shu sababli yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirishda media va axborot savodxonligini rivojlantirish muhim vazifaga aylanmoqda. Yoshlar axborot manbasini tekshirish, fakt va fikrni ajratish, yolg‘on xabarlarini aniqlash, internetdagi shaxsiy xavfsizlik qoidalariga amal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. Bunda taqiqlashdan ko‘ra tushuntirish va ongli foydalanish madaniyatini shakllantirish samaraliroqdir. Yosh internetdan butunlay chetlashtirilishi emas, balki undan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatilishi kerak. Insonning ma‘naviy tarbiyasi avvalo oiladan boshlanadi. Bola hayotining dastlabki davrlarida

ota-onasining xatti-harakatlarini kuzatish orqali turli axloqiy tushunchalarni o‘zlashtiradi. Oiladagi muomala madaniyati, o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va mas‘uliyat farzandning xarakteriga bevosita ta‘sir qiladi. Ota-ona farzandiga halollik haqida gapirib, o‘zi kundalik hayotda halol bo‘lmasa, tarbiyaviy ta‘sir kutilgan natijani bermasligi mumkin. Shu sababli tarbiyada shaxsiy namuna alohida ahamiyatga ega. Oilada kitob o‘qish, suhbatlashish, tarixiy voqealarni muhokama qilish, milliy bayram va an‘analarni mazmunini tushuntirish yoshlarning ma‘naviy dunyosini boyitadi. Ayniqsa, farzand bilan ochiq va samimiy muloqot qilish uning muammolarini vaqtida aniqlash va to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish imkonini beradi, oila va ta‘lim muassasasi o‘rtasidagi hamkorlik ham muhimdir. Ota-ona va pedagogning tarbiyaviy talablari bir-birini to‘ldirsa, yoshning shaxs sifatida shakllanishi yanada samarali kechadi. Ta‘lim muassasasi yoshlar hayotida katta vaqtni egallaydi. Shu sababli maktab, akademik litsey, professional ta‘lim muassasasi va oliy ta‘lim tashkilotlarida bilim berish bilan bir qatorda tarbiyaviy faoliyatni ham izchil olib borish zarur bo‘lib pedagogning shaxsiy namunasi tarbiyada kuchli vosita hisoblanadi.

O‘qituvchining adolatli bo‘lishi, talabaga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, o‘z kasbini sevishi va mas’uliyat bilan yondashishi yoshlar uchun amaliy namuna bo‘lib xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida ma’naviy tarbiyani faqat alohida tadbirlar bilan cheklab qo‘ymaslik kerak. Tarbiyaviy mazmun fanlarning o‘zida ham aks etishi mumkin. Tarix darslarida tarixiy xotira va vatanparvarlik, adabiyotda insonparvarlik va axloq, biologiyada tabiatga mas’uliyatli munosabat, huquq fanlarida qonun va fuqarolik mas’uliyati masalalarini yoritish mumkin. Interfaol metodlar ham ma’naviy tarbiyada samarali vosita bo‘la oladi. Munozara, bahs, loyiha, rolli o‘yin va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish orqali yoshlar o‘z fikrini asoslash, boshqalarning fikrini tinglash va xulosa chiqarishga o‘rganadi. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda milliy qadriyatlarni asrab-avaylash bilan birga umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish zarur. Milliy qadriyatlar xalqning tarixi, tili, madaniyati, urf-odatlar va an’analarida o‘z aksini topadi. Ona tiliga hurmat, ajdodlar merosini qadrlash, kattalarni e’zozlash, kichiklarga g’amxo‘rlik, mehmondo‘stlik, qo‘ni-qo‘shnichilik va o‘zaro yordam kabi fazilatlar xalqimizning ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutadi. Umuminsoniy qadriyatlar esa inson huquqlarini hurmat qilish, tinchlik, adolat, bag‘rikenglik, mehr-oqibat, insonparvarlik va boshqa xalqlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni o‘z ichiga oladi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir-biriga qarama-qarshi emas. Aksincha, ular uyg‘unlashgan holda shaxsning ma’naviy dunyosini boyitadi. O‘z milliyligini anglagan va boshqa xalqlarning madaniyatiga hurmat bilan qaraydigan yosh jamiyatda sog‘lom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga katta hissa qo‘sha oladi. Yoshlar ma’naviyatining muhim ko‘rsatkichlaridan biri ularning Vatanga bo‘lgan munosabatidir. Vatanparvarlik faqat balandparvoz so‘zlardan iborat emas, u insonning kundalik hayotidagi mas’uliyatli xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi. Yaxshi o‘qish, kasbni puxta egallash, halol mehnat qilish, qonunlarga rioya etish, tabiatni asrash, jamoat mulkiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish ham vatanparvarlikning amaliy ko‘rinishlaridir. Yoshlarda fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish uchun ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini qo‘llab-quvvatlash kerak. Turli ijtimoiy loyihalar, volontyorlik faoliyati, ekologik aksiyalar, xayriya tadbirlari va jamoatchilik tashabbuslarida ishtirok etish yoshlarning ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantiradi, kitob inson tafakkurini rivojlantiruvchi eng muhim vositalardan biridir. Badiiy adabiyot insonni turli xarakter va taqdir bilan tanishtiradi, uning hissiy dunyosini boyitadi. Ilmiy adabiyot esa bilim va dunyoqarashni kengaytiradi, yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish ma’naviy tarbiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi kerak. Kitob o‘qigan yosh o‘z fikrini ifodalash, voqea-hodisalarni tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarishda ko‘proq imkoniyatga ega bo‘ladi. Bunda yoshlarni faqat kitob o‘qishga chaqirishning o‘zi yetarli emas, ularning qiziqishlariga mos adabiyotlarni tavsiya qilish, kitob muhokamalari, adabiy kechalar, viktorinalar va ijodiy loyihalarni tashkil etish yaxshi natija beradi. Hozirgi davrda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish jarayonida bir qator muammolar mavjud. Ulardan biri yoshlarning ayrim hollarda internet va ijtimoiy tarmoqlardan me’yoridan ortiq foydalanishidir.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va komil insonni shakllantirish uzoq muddatli, izchil va kompleks yondashuvni talab qiladigan jarayondir. Yoshlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasi faqat ta’lim muassasasida emas, balki oila, mahalla,

do‘stlar muhiti, ommaviy axborot vositalari va raqamli makon ta‘sirida ham shakllanadi, komil insonni tarbiyalashda bilim va ma‘naviyatning uyg‘unligi muhimdir. Bilimli, ammo mas‘uliyatsiz yoki axloqiy qadriyatlarga befarq shaxs jamiyat taraqqiyotiga to‘laqonli hissa qo‘sha olmaydi. Shu sababli zamonaviy ta‘lim jarayonida intellektual rivojlanish bilan bir qatorda ma‘naviy-axloqiy tarbiyaga ham katta e‘tibor berilishi lozim. Yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, umuminsoniy g‘oyalarga sadoqat, vatanparvarlik, halollik, adolat, mehnatsevarlik, insonparvarlik va mas‘uliyat ruhida tarbiyalash jamiyatning ma‘naviy barqarorligini ta‘minlaydi. Ayniqsa, globallashuv va raqamli texnologiyalar sharoitida media savodxonlik, tanqidiy fikrlash va axborotni saralash ko‘nikmalarini shakllantirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirishning eng samarali yo‘llaridan biri — ularga tayyor nasihatlarini berish emas, balki mustaqil fikrlash, o‘z qarorini asoslash, ezgu faoliyatda ishtirok etish va shaxsiy mas‘uliyatni his qilish imkoniyatini yaratishdir. Oila, ta‘lim muassasasi va jamiyatning hamkorligi asosida olib boriladigan bunday tarbiya jarayoni ma‘naviy yetuk, bilimli, faol va jamiyatga foydali avlodni shakllantirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish masalasi nafaqat tarbiyaviy, balki ijtimoiy va strategik ahamiyatga ega vazifa sifatida qaralishi zarur. Ma‘naviy yetuk yoshlar — mamlakatning ilmiy, madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining muhim tayanchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
3. O‘zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosatiga doir normativ-huquqiy hujjatlari.
4. UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. — UNESCO, 2016.
5. OECD. Education at a Glance 2024. — OECD Publishing, 2024.